

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MOHIYATI VA ZARURIYATI

Urolova Charos Shavkatovna

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistonda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va iqtisodiy zaruriyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning bank tizimiga joriy etilishi natijasida moliyaviy xizmatlarning tezkorligi, qulayligi va ommabopligi ortib borayotgani yoritiladi. Shuningdek, masofaviy bank xizmatlari, mobil ilovalar, internet-banking va elektron to‘lov tizimlarining aholiga hamda tadbirkorlik subyektlariga yaratib berayotgan imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada raqamli transformatsiya jarayonining banklar raqobatbardoshligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy inklyuziyaga erishishdagi o‘rni ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli bank xizmatlari, raqamli transformatsiya, internet-banking, mobil banking, elektron to‘lovlar, moliyaviy texnologiyalar (FinTech), moliyaviy inklyuziya, bank tizimi, innovatsion xizmatlar, masofaviy bank xizmatlari, bank raqobatbardoshligi, O‘zbekiston iqtisodiyoti.*

Kirish

Zamonaviy dunyo iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi barcha sohalarga, jumladan, bank tizimiga ham katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida bank xizmatlarini masofadan turib ko‘rsatish, moliyaviy operatsiyalarni tez va xavfsiz amalga oshirish imkoniyatlari kengayib bormoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va aholiga qulay xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli bank xizmatlari bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqib, xizmatlar sifati va tezkorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mobil ilovalar, internet-banking, elektron hamyonlar, QR-kod orqali to‘lovlar va masofaviy identifikatsiya tizimlari bugungi kunda moliyaviy xizmatlarning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi.

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishning mohiyati va zaruriyatini o‘rganishda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik ma‘lumotlarni o‘rganish hamda ilmiy adabiyotlar sharhi metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarining amaliy holatini baholash maqsadida bank sektori faoliyatiga oid hisobotlar va

me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar asosida umumlashtirish va xulosa chiqarish usullari qo'llanildi.

Adabiyotlar sharhi

Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan Thiago Felipe, Rui Torres de Oliveira, Agnes Toth-Peter, Shane Mathews va Uwe Dulleckelar (2025) tomonidan qilingan ilmiy ishda ham tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi jarayonlari chuqur o'rganilgan, Banklar mijozlarga yaqinlashishi, tezkor xizmat ko'rsatish va xavfsizlikni oshirish uchun sun'iy intellekt va avtomatlashtirishdan faol foydalanyotganligini ta'kidlangan. Brett King (2012, 2018) raqamli texnologiyalar bank xizmatlarini tubdan o'zgartirib, an'anaviy bank modelidan platformaviy bank tizimiga o'tishni tezlashtirayotganini ta'kidlaydi. Chris Skinner (2014-2016) esa raqamli transformatsiya banklarning raqobatbardoshligini oshirish va mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlarni rivojlantirishning asosiy omili ekanligini qayd etadi. Shuningdek, Jaxon banki va xalqaro valyuta fondi hisobotlarida raqamli moliyaviy xizmatlar moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan.

Mahalliy adabiyotlarda ham bank tizimini raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston iqtisodchi olimlari va bank sohasi mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli bank xizmatlarining aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun qulayliklari, to'lov tizimlari samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2020-2025) tomonidan e'lon qilinayotgan tahliliy materiallar va hisobotlarda bank sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy xizmatlarni kengaytirish hamda fintech ekotizimini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Shuningdek, Prezidentimiz (2020) qaroriga asosan shakllantirilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida moliyaviy xizmatlarning raqamli ko'rinishga o'tishini jadallashtirish vazifasi belgilab berilgan. A.S. Ulmasov (2024) tomonidan yozilgan maqolada QR-kod orqali amalga oshiriladigan onlayn to'lovlar misolida iste'molchilar moliyaviy xulqining o'zgarish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot ishida aholining raqamli to'lovlarga qiziqishi va ulardan foydalanish darajasi ortib boryotganligi tahlil qilinib, bu tijorat banklari uchun yangi strategik imkoniyatlarni ochishi yoritilgan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish va innovatsion moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Tahlil va natijalar.

O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bir qator sezilarli natijalarga olib keldi. Bugungi kunda mamlakatimizda tijorat banklari o'z mijozlariga

ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi bank xizmat turlarini yaratish hamda xizmat ko‘rsatish tannarxini pasaytirish maqsadida Fintechdan foydalanish darajasini oshirmoqda. Ba’zi banklar ofis va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini, shu jumladan, an’anaviy operatsiyalarni masofadan boshqarish imkonini beruvchi ilg‘or texnologiyalar yordamida kengaytirayotgan bir vaqtda, boshqalari xizmat ko‘rsatish jarayonlarini to‘liq onlayn shaklda yo‘lga qo‘yishni afzal ko‘rmoqda.

Dunyo bo‘ylab banklar allaqachon raqamli texnologiyalarga investitsiyalar kiritish va hu orqali ko‘proq mijozlarni jalb qilish mumkinligini ta’kidlashmoqda. Dunyo banklari bugungi kunda an’anaviy bank filiallariga qaraganda ko‘proq onlayn depozitlar qabul qilgan. Raqamli bank xizmatlariga investitsiya kiritish mijozlarning ehtiyojini to‘laroq qondirishga yordam beradi.

Raqamli bank xizmatlarining asosiy yo‘nalishlari mijozlar uchun qulaylik va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

1-jadval


Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Raqamli bank xizmatlarini	Mohiyati	samaradorligi
Mobil banking	Ilovalar orqali hisob kitob va xizmatlardan foydalanish	Vaqtning tejash, qulaylik, 24/7 xizmat
Onlayn to‘lov tizimlari	Elektron to‘lovlar va fakturalarni rasmiylashtirish	Tez va xavfsiz to‘lovlar, operatsiyalarni kuzatish imkoniyati
Shaxsiy kabinetlar va interaktiv xizmatlar	Hisob-kitoblar, balansni kuzatish, kredit va depozit	Mijozlarning moliyaviy nazoratini oshirish, xizmatlardan mustaqil foydalanish
Chatbot va onlayn konsultatsiyalar	Sun‘iy intellekt yordamida mijozlarga xizmat	Savollarga tezkor javob, qo‘llab-quvvatlash 24/7
Raqamli xavfsizlik va autentifikatsiya	Biometrik va ikki faktorli autentifikatsiya	Xavfsizlik oshadi, ishonch hosil qilinadi

Mobil banking va onlayn to‘lov tizimlari orqali mijozlar vaqtning tejaydi va bank xizmatlariga doimiy kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shaxsiy kabinetlar va interaktiv xizmatlar mijozlarning moliyaviy nazoratini oshiradi, ularni xizmatlardan mustaqil foydalanishga o‘rgatadi. Chatbot va sun‘iy intellektga asoslangan konsultatsiyalar esa savollarga tezkor javob berish orqali xizmat sifatini yaxshilaydi. Raqamli xavfsizlik tizimlari

esa mijozlar ishonchini oshirish va firibgarlikdan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarini samarali rivojlantirish banklar uchun ham xarajatlarni kamaytirish, operatsion jarayonlarni tezlashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Aholi uchun qulay bo‘lgan raqamli bank xizmatlaridan foydalanish yildan-yilga ortib bormoqda, Tijorat banklari va to‘lov tizimlari raqamli ofis imkoniyatlarini kengaytirmoqda hamda mijozlar uchun yanada rivojlangan raqamli xizmat turlarini ko‘lamini kengaytirmoqda. Bu esa mobil bank ilovalarining nafaqat oddiy tranzaksiya vositasi sifatida foydalanish, balki ko‘p funksionali platformaga aylanayotganidan dalolat beradi.



1-rasm. To‘lov tashkilotlari tomonidan o‘tkazilgan to‘lovlar maqsadlari bo‘yicha tarkibi⁷⁷

Raqamli transformatsiya shuni ko‘rsatmoqdaki an’anaviy bank xizmatlari o‘rniga raqamli bank va mobil bank xizmatlari ulushi barcha yo‘nalishlarda ilgarilab bormoqda.

Raqamli transformatsiya banklarning operatsiyalarini 30% ga tezlashtirgan. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bank sektorida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan forumlar va tadbirlarning ko‘payishiga olib keldi. Ko‘plab tijorat banklari o‘z mobil ilovalari va onlayn platformalarini takomillashtirib, mijozlarga uydan chiqmasdan turli bank operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini yaratdi.

O‘zbekistonda raqamli banklar orasida TBC Bank Uzbekistan foydalanuvchilar bazasi va moliyaviy natijalari bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. 2024-yil yakuniga ko‘ra bank ekotizimi

⁷⁷ Umarov M. O‘zbekistonda banklarni transformatsiyalash jarayonida raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish yo‘llari

foydalanuvchilari soni 18,4 millionga, kredit portfeli esa 8,07 trillion so‘mga yetgan. Bu raqamli bank xizmatlariga bo‘lgan talabning ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa

O‘zbekistonda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish bank tizimini modernizatsiya qilish va iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mobil banking, internet banking, elektron to‘lov tizimlari va onlayn kreditlash xizmatlari keng rivojlandi. Natijada bank xizmatlarining qulayligi, tezkorligi va ommabopligi sezilarli darajada oshdi.

Shu bilan birga, kiberxavfsizlik, raqamli savodxonlik va infratuzilma bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish zarur. Kelajakda sun‘iy intellekt, blokcheyn, Open Banking va fintech texnologiyalarining joriy etilishi raqamli bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Umuman olganda, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish O‘zbekistonda moliyaviy tizim samaradorligini oshirish, aholi va biznes subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratish hamda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent.
2. Thiago Felipe , Rui Torres de Oliveira , Agnes Toth-Peter, Shane Mathews, Uwe Dullecke, “Digital transformation in commercial banks: Unraveling the flow of Industry 4.0”, 2025, <https://www.elsevier.com/locate/digbus>
3. Umarov M. O‘zbekistonda banklarni transformatsiyalash jarayonida raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish yo‘llari 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimini transformatsiya qilish strategiyasi 2020 y.
5. World Bank. Digital Financial Services. Washington, D.C. 2022
6. Chris Skinner. Digital Bank London 2014
7. Brett King. Bank 4.0 Singapore 2018